



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№1/2023

Litsenziya raqami: №095310



# **MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI**

*Elektron nashr. 218 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.*


## **TAHRIR HAY'ATI:**

|  |  |                            |
|--|--|----------------------------|
| Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich | tarix fanlari doktori, professor   | Bosh muharrir              |
| Ibragimova Gulsanam Ne'matovna         | pedagogika fanlari doktori(DSc), professor   | Bosh muharrir o'rinnbosari |
| Hamdamova Maxzuna Tursunovna           | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | Bosh muharrir o'rinnbosari |
| Jamoldinova Odinaxon Rasulovna         | pedagogika fanlari doktori, professor  | A'zo                       |
| Djamilova Nargiza Nuriddinovna         | pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  | A'zo                       |
| Babayeva Dono Razzakovna               | pedagogika fanlari nomzodi, professor  | A'zo                       |
| Sadikova Shoista Akbarovna             | pedagogika fanlari nomzodi, professor  | A'zo                       |
| Jumanova Fotima Uralovna               | pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  | A'zo                       |
| Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna     | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                       |
| Mirzayeva Farog'at Odiljonovna         | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent   | A'zo                       |
| Bafayev Muxiddin Muxammadovich         | psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  | A'zo                       |
| Ne'matov Shuhrat yergashovich          | pedagogika fanlari nomzodi   | A'zo                       |
| Ochilov Sevin Rajaboyevich             | Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti | A'zo                       |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna        | Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                       |
| Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna          | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  | A'zo                       |
| Radjapova Zuxra Tirkashevna            | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                       |
| Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna      | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent   | A'zo                       |

**Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ**

**Hamkorlarimiz:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



# MUNDARIJA

|   |    |
|---|----|
| “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O’zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to’g’ri yo’lidir” .....                     | 6  |
| Qirg’zboyev Abdug’affor Karimjonovich   |    |
| Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish mexanizmlari .....                                     | 8  |
| Ibragimova Gulsanam Ne’matovna  |    |
| Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в ДОО .....   | 11 |
| Хамдамова Махзунा Турсуновна  |    |
| Methodological advancements in the English instruction of preschoolers.....   | 15 |
| Asiljonova Shohsanam Doniyorovna  |    |
| Yangi O’zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar .....                                      | 18 |
| Babayeva D. R.  |    |
| Maktabgacha yoshdagи bolalarni iqtisodiy tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalarning o’zaro ta’siri .....                  | 21 |
| Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi   |    |
| Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta’lim tizimida metodik ishlarni tashkil etish.....                                    | 25 |
| Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna   |    |
| Nеполные предложения как объект исследования .....  | 28 |
| Ибатова Амира Шавкатовна, Юлдашева Диляноза Бекмуродовна  |    |
| Lider va uning fazilatlari xorijlik olimlar va tadqiqotchilar nigohida .....  | 32 |
| Irgasheva Madinabonu Baxromjon qizi   |    |
| Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o’rni.....   | 36 |
| Raximberganova Munojat Muzaffar qizi, Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich   |    |
| Maktabgacha yoshdagи bolalarni ijodiy faoliyatga o’rgatishda STEAM ta’lim texnologiyasining ahamiyati .....               | 38 |
| Kojageldiyeva Aziza Muxsum qizi   |    |
| Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tashkil etishning sharoit va imkoniyatlari .....                                  | 41 |
| Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam   |    |
| Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari.....   | 46 |
| Bafayev Muxiddin Muxammadovich  |    |
| Особенности занятий спортом в подростковом возрасте и<br>их влияние на школьную успеваемость учеников.....                | 50 |
| Ризаев Азизжон Рахимджанович  |    |
| Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari .....  | 54 |
| Marasulova Dono Nigmatullayevna   |    |
| Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyanuvchilarini ma’naviy fazilatlarini shakllantirish texnologiyalari.....           | 59 |
| Matchanov B. O.   |    |
| Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda hayot xavfsizligi ko’nikmalarini<br>shakllantirishning psixologik xususiyatlari..... | 63 |
| Muratova Munavar O’rol qizi   |    |
| Развитие речи дошкольников как социально-коммуникативный процесс.....   | 67 |
| Нажмиддинова Гулноза Одиловна   |    |
| Bo’ljak tarbiyachilarining mediakompetentligini oshirish mexanizmlari.....  | 70 |
| Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi   |    |
| Методика развития речи дошкольников .....   | 74 |
| Очилова Хилола Шералиевна   |    |
| Okul öncesi dönemde bulunan çocukların için anne-babaların<br>çocuk kitapları seçim kriterlerinin incelenmesi.....        | 78 |
| Elem Göktaş   |    |
| Дидактическая игра как средство экологического образования детей дошкольника .....  | 87 |
| Равшанова Наргиза Норбоевна   |    |
| Отешова Гульнур Кабуловна   |    |

|  |     |
|--|-----|
| Оценка эффективности цифровых технологий по сравнению с традиционными методами управления качеством образования в дошкольных учреждениях.....            | 91  |
| Хайдаров Р.  |     |
| Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi .....  | 95  |
| Radjapova Zuxra Tirkashevna  |     |
| Развитие коммуникативной компетентности среди будущих дошкольных учителей .....  | 100 |
| Садикова Шоиста, Тохирова Шохсанам   |     |
| Maktabgacha ta'limda yuksalish .....   | 104 |
| Shirbacheyeva Gulchehra Shakirovna, Nuraliyeva Rahbaroy Ravshanbek qizi  |     |
| Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar ..... | 106 |
| Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna   |     |
| Model of Professional Competencies Preschool Education Teacher .....   | 109 |
| Tokhirova Shokhsanam   |     |
| Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirishning metodik shart-sharoitlari .....   | 114 |
| Xo'jamatova X. M.  |     |
| Zamonaviy o'zbek oilalarda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda qadriyatlarning o'rni .....  | 119 |
| Yakubova Zilola Zikirovna  |     |
| Maktabgacha yoshdagи bolalarga til o'rgatishda o'yinlardan foydalanish.....  | 122 |
| Mirkasimova Zilola Alisherovna   |     |
| Maktabgacha yoshdagи bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologik qo'llab-quvvatlash .....  | 124 |
| Musratova Zilola Ulugbekovna   |     |
| Maktabgacha yoshdagи bolalarning shaxslararo munosabati .....  | 128 |
| Alimova Gulchehra Qobilovna, Sadikova Durdong Shohasan qizi  |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari .....   | 132 |
| Teshabayeva Zamira Sobirovna   |     |
| Maktabgacha yoshdagи bolalarda qadriyatlar shakllanishida xavotirli holatning ahamiyati .....  | 135 |
| Maxmudova Dilorom Axmadovna  |     |
| MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'naliishlari.....   | 137 |
| Nabiiev Erkin Esanovich, Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna   |     |
| Xorijiy tillarning psixologik xususiyatlari.....   | 140 |
| Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich   |     |
| Possibilities of Developing Social Competence in Future Educators.....   | 143 |
| Khalilova Dilnoza Furkatovna   |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....   | 146 |
| Jumanova Fatima Uralovna   |     |
| Talabalarning kasbiy kompetentliligin integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi.....   | 149 |
| Kamalova Gavhar Akbarovna  |     |
| Til leksik sistemasining kognitiv aspekti nazariyasi.....  | 152 |
| Muzaffarova Nodira Mardonovna, Umarova Obida Avazxonovna   |     |
| Madaniyatlararo muloqot asosida bo'lajak o'qituvchilarining<br>kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi.....                           | 156 |
| Ne'matova G. A.  |     |
| Soha mutaxassislarining ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish muammolari .....   | 160 |
| Norboyeva Dilafruz Jumakulovna   |     |
| Abdulla Oripov she'riyatida qush nomlari uslubiy vosita sifatida.....  | 163 |
| Yuldasheva Dilnoza   |     |
| Talabaning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda ilmiy uslubning ahamiyati.....   | 166 |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna  |     |
| Raxmatova Saodat Amrakulovna   |     |
| Ona bilan munosabatning o'smir tomonidan guruhn'i idrok etilishiga ta'sir xususiyatlari .....  | 172 |
| Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna  |     |



|  |     |
|--|-----|
| Основные аспекты передачи способностей и генетических характеристик от родителей.....        | 176 |
| Тургунов Абдурашид Абдуманнобович  |     |
| Onalik munosabati autizm sindromli bolalarni ruhiy rivojlanishining omili sifatida.....      | 182 |
| Asrarhanova E'tibor Abduvaxob qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvaxob qizi                        |     |
| Psixik yetuklik bolaning maktab ta'limga psixologik tayyorligi ko'rsatkichi sifatida .....   | 186 |
| Jalilova Saboxat Xalilovna   |     |
| O'smirlar tasavvurida stressogen ta'sirlarning psixologik tahlili .....                      | 191 |
| Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna  |     |
| Seminar mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning "kouching" shakli .....                  | 196 |
| Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna   |     |
| Shaxs o'zini o'zi faollashtirishi tushunchasining ilmiy mohiyati.....                        | 199 |
| Qurbanboyev Azimbek Nazirboy o'g'i   |     |
| Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi..... | 202 |
| Muxsiyeva Aziza Shamsiddinovna   |     |
| Pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari.....     | 205 |
| Nurmatov Nurhayot Nurziytot o'g'i  |     |
| Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning                   |     |
| pedagogik-psixologik xususiyatlari.....  | 209 |
| Farxodov Fozil Baxrom o'g'li, Adizova Gulzoda Mehridinovna                                   |     |
| Социальнопедагогическая компетентность воспитателя ДОО.....                                  | 212 |
| Ширбачеева Г. Ш., Тиллябаева М. Х.   |     |
| Inklyuziv ta'limgarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning o'ziga xos qirralari.....   | 215 |
| Xusanov Samariddin Maxmadaminovich   |     |



# BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Jumanova Fatima Uralovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Maktabgacha ta'lif metodikasi kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliv ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish sharti sifatida bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etish, innovatsion kompitensiyasini rivojlantirish va ta'lif samaradorligiga erishish haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** "yangilanish", "o'zlashtirish", "qandaydir yangilikni kiritish", "yangini joriy qilish", "yangilik kiritish".

**Abstract:** This article describes the organization of innovative activities of future teachers, the development of innovative competence and the achievement of educational efficiency as a condition for the fundamental improvement of the higher education system.

**Key words:** "updating", "adopting", "introducing something new", "introducing something new", "introducing something new".

**Аннотация:** В данной статье описана организация инновационной деятельности будущих учителей, развитие инновационной компетентности и достижение образовательной эффективности как условие коренного совершенствования системы высшего образования.

**Ключевые слова:** "обновление", "принятие", "внедрение чего-то нового", "внедрение чего-то нового", "введение чего-то нового".

Bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar innovatsion islohotlar qilishga, yangiliklar kiritishga intilmoqda. Xususan, yangiliklar ularga uyushish, rejali va ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'larning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhit hukm surishi lozim.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev innovatsiya va mamlakatni innovatsion rivojlantirish bo'yicha shunday deydi: "**Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni ayanan innovatsion g'oyalalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'liga o'tishimiz beziz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.**"

2020-yil 24-iyulda qabul qilingan "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni taraqqiyotimizni kafolatlovchi, uni yanada jadallashtiruvchi yangi g'oya, yangi kashfiyotlar, ilmiy ishlanmalarni yaratish hamda hayotga joriy etilishining ishonchli huquqiy mexanizmlarini mustahkamlashda benihoya muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunda ifodalangan ta'rifga ko'ra, innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalananligan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma.

Innovatsion faoliyat esa, yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek, ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyatdir. Bilamizki, "innovatsiya" tushunchasi lotin tilidan olingan bo'lib (in-ga; novus – yangi), "yangilanish", "o'zlashtirish", "qandaydir yangilikni kiritish", "yangini joriy qilish", "yangilik kiritish" ma'nolarini beradi. O'z navbatida "yangi" so'zi ushbu tushunchaning asosiy yadrosini tashkil etadi. Odadta, yangilanish tushunchasi ta'linda ko'p hollarda o'zgartirish tushunchasi bilan sinonimdir. Agar ushbu o'zgartirish keng qamrovli bo'lsa va butun ta'lif tizimini o'zgartirsa, unda "islohot" tushunchasi bilan izohlanadi. "Innovatsiya" ingliz tilida amalda mavjud bo'lgan narsa yoki tizimda yangicha usullar, g'oyalalar yoki mahsulotlar orqali o'zgarishlarni amalga oshirishni bildiradi. Masalan, ta'lif sohasida yangicha yondashuv

sinflarni kichraytirish va fikrni sayqallovchi munozaralarga o'rin berish, ijodiy ishlarga urg'u berish, fikrlar (talabanning o'z fikriga ega bo'lishiga chorlash) va mahsulotlar (kompyuterlar va onlayn dasturlar) bilan ta'minlashni bildiradi. Innovatsiya – bu ma'lum bir bosqich asosida rivojlanadigan jarayondir. U bir nechta ma'nodagi tushunchalarni beradi:

1. Innovatsiya – bu ta'larning yangi mazmuni, shakl va metodlarini ishlab chiqish.
  2. Yaratilgan pedagogik tizimni joriy etish va ommalashtirish.
  3. Ta'lrim muassasani boshqarish va rivojlantirishning yangi texnologiyasini ishlab chiqish.
  4. Tajriba-sinov obyekti sifatida.
  5. Yaxlit pedagogik jarayonni innovatsiyalash.
  6. Yangiliklarning qo'llanilish darajasini yangi mahsuldarliklar bilan o'zgartirish bosqichi.
- Oliy ta'lrim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida 2017-yil 20-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lrim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ2909-sonli qaroriga qabul qilinib, oliy ta'lrim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar belgilangan. Bunda:
- har bir oliy ta'lrim muassasasi jahoning yetakchi ilmiy-ta'lrim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lrim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lrim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lrim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish;
  - oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, oliy ta'lrim muassasalarda o'qitish Ta'lrim va innovations tadqiqotlar (2021-yil yo'nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talabalarini inobatga oлgan holda optimallashtirish;
  - ta'lrim jarayonini, oliy ta'larning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta'lrim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish;
  - yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta'lrim muassasalarining ta'lrim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta'lrim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;
  - pedagog kadrlarning kasb mahorati sifati va saviyasini uzlusiz yuksaltirish, xorijda pedagog va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish va stajirovkasini o'tkazish, oliy ta'lrim muassasalari bitiruvchilarini PhD va magistratura dasturlari bo'yicha o'qitish, oliy ta'lrim muassasalari va qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari o'quv jarayonlariga yuqori malakali xorijiy olimlar, o'qituvchi va mutaxassislarini keng jalb qilish;
  - oliy ta'lrim muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'linda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilmfan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta'lrim muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga keng jalb etish;
  - oliy ta'larning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talabayoshlarga mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish;
  - oliy ta'lrim muassasalari moddiy-texnika bazasini o'quv va ilmiy-laboratoriya bino va korpuslari, sport inshootlari, ijtimoiy muhandislik infratuzilmasi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, oliy ta'lrim ilm-fanining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'quv-ilmiy laboratoriylarini zamonaviy asbob va uskunalar bilan jihozlash orqali yanada mustahkamlash;
  - oliy ta'lrim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, oliy ta'lrim muassasalarini talabalari, o'qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta'lrim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlарини kengaytirish.

Yuqoridagi vazifalarni ijrosini ta'minlash uchun oliy ta'limga muassasalarida innovatsion faoliyatning samarali tashkil etilishi, professor-o'qituvchilarning yuksak intellektual va innovatsion salohiyati hamda innovatsion yondashuvi talab etiladi. Ta'limga muassasasida innovatsion faoliyatning samarali yo'lga qo'yilganligi innovatsion jarayon subyekti va innovatsion jarayonning faoliyatli tuzilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Innovatsion faoliyat – pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. V. I. Slobodchikovning ta'kidicha, "Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir".

Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishdir. Oliy ta'limga muassasasi professor-o'qituvchisi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdir. Innovatsion faoliyat uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O'qituvchi innovatsion faoliyatining xususiyatlarini o'rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiylarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

Innovatsion faoliyatning tuzilishini o'rganib chiqqan olimlardan biri V. A. Slastenin uni quyidagicha tuzilishga ega deb ko'rsatib o'tadi: "Innovatsion faoliyatning tuzilishi – ijodiy yondashuv, ijodiy faoliylik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyati. Innovatsion faoliyatning darajalari: Ta'limga innovatsion tadqiqotlar reproduktiv, evristik, kreativ bo'lishi mumkin".

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, o'zgarishlar tom ma'noda ta'limga jarayoniga kiritish to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

- 1) muammoni tahlil asosida aniqlash;
- 2) mo'ljallanayotgan ta'limga tizimini loyihalash;
- 3) o'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish;
- 4) o'zgarishlarni amalga oshirish.

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorligi deganda, ushbu faoliyat uchun zarur bo'lgan shaxsning shakllanishini tushunish lozimdir. Bunga katta hajmdagi mehnat qobiliyati, yuqori hissiy holat, ijodkorlikka tayyorlik va maxsus fazilatlar (bilim), yangi texnologiyalar, yangi o'qitish usullarini o'zlashtirish, loyihalarni ishlab chiqish qobiliyati, kamchiliklarning sabablarini tahlil qilish va aniqlash qobiliyati kiradi. "Innovatsion faoliyat – o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi. U o'qituvchi tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to'siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi". Innovatsion faoliyat yangi g'oyani izlashdan boshlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, oliy ta'limga muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion kompetensiya va innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad – o'qituvchilarni yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalaniib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iboratdir. Innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratish bo'lib, uning pragmatik xususiyati shundaki, u g'oyalar maydonida ham va alohida bir subyektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo'ladigan holdagini haqiqiy innovatsiya hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldag'i "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-630-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apriledagi "Oliy ta'limga tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori.
3. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T., 2018. – 19–20-b.



**Muharrir:** Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

## 2023. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'lumi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamatardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga  
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**